



The role of authentic materials in improving the sociolinguistic competence of future English teachers

Abbos Ermirzaev ¹

Namangan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

15 March 2025

Keywords:

sociolinguistic,
competence,
authentic,
material,
visual.

ABSTRACT

Modern educational institutions recognize the effectiveness of using authentic materials in the process of improving students' sociolinguistic competence. This article examines the types of authentic materials that contribute to the development of sociolinguistic competence, as well as the pedagogical technologies for their teaching.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp111-115>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishda autentik materiallarning roli

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

sotsiolingvistik,
kompetensiya,
autentik,
material,
vizual.

Zamonaviy ta'lim muassasalari tomonidan talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishda autentik materiallardan foydalanish samarali ekanligi e'tirof etilmoqda. Ushbu maqolada sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtiruvchi autentik material turlari va ularni o'qitishdagi pedagogik texnologiyalar haqida so'z yuritiladi.

¹ Associate Professor, Namangan State Institute of Foreign Languages.
E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmail.com

Роль аутентичных материалов в совершенствовании социолингвистической компетенции будущих преподавателей английского языка

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

социолингвистический,
компетенция,
аутентичный,
материал,
визуальный.

Современные образовательные учреждения признают эффективность использования аутентичных материалов в процессе совершенствования социолингвистической компетенции студентов. В данной статье рассматриваются виды аутентичных материалов, способствующих развитию социолингвистической компетенции, а также педагогические технологии их преподавания.

KIRISH

Dunyoda talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish orqali kasbiy yetuklikni rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim asosida talabalar orasida millatlararo bag'rikenglikni tarbiyalashga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Sarbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration), Ta'lim barcha uchun (Education For All(EFA)), Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGs)), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konvensiyalarida kompetentli yondashuv asosida malakali kadrlarni tayyorlash yo'nalishlari belgilab berilgan. Ayniqsa, talabalarda insonparvarlik, millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish, turli madaniyat vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabat va bir-birini tushunish muammosini hal etishda innovatsion izlanishlar, jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonlarini takomillashtirish hamda lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi asosida talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini yaxshilash, o'quv materiallarini tanlashda madaniyat bilan uyg'unlik yo'nalishidagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishda autentik materiallarning ahamiyati beqiyosdir. Autentik material — bu asl (original) va tabiiy kontekstda yaratilgan material bo'lib, u til o'rganish yoki o'qitish maqsadida maxsus moslashtirilmagan. Bunday materiallar aslida tilni qo'llaydigan kishilar tomonidan, o'z ehtiyojlari va muloqot maqsadlarida yaratiladi.

Gebhard (1996) EFL/ESL o'qituvchilari foydalangan autentik materiallarning yana bir qancha misollarini keltiradi. Quyida uning dars rejalashtirish uchun manba bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan ba'zi misollari keltirilgan: a) matnli materiallar: gazeta va jurnal maqolalari, kitoblar, blog postlar, reklama matnlari, e'lonlar; b) audio va video materiallar: intervyular, radio eshittirishlari, podkastlar, filmlar, seriallar, YouTube videolari; c) vizual materiallar: Infografikalar, posterlar, diagrammalar, billboard reklamalari; d) kunlik hayotda ishlatiladigan hujjatlar: Chiptalar, menyular, xarita va yo'riqnomalar, kvitansiyalar, rasmiy hujjatlar.[2]

Darslar samarali bo'lishi uchun o'qituvchilarning autentik materiallardan foydalanishi muhim hisoblanadi. Aslida, autentik materiallardan foydalanish bir qancha afzalliklarga ega. Brinton (1991) ga ko'ra, autentik materiallar va ommaviy axborot

vositalari talabalarga auditoriyada til o'rganish muhiti va tashqi dunyo o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni mustahkamlashga yordam beradi. Gebhard (1996) autentik materiallarni til o'rganishni kontekstga joylashtirish usuli sifatida ko'radi. Darslar televideniyaedagi ob-havo hisobotini tushunishga asoslangan bo'lsa, talabalar tilning o'ziga emas, balki mazmun va ma'noga e'tibor qaratadilar. Bu esa talabalar uchun muhim til manbai bo'lib xizmat qiladi, shunda ular faqat darslik va o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan materiallardan tashqari qo'shimcha til bilishni mustahkamlovchi til sohiblarining madaniyatiga xos nutqiy etikasini o'rganadi va amalda qo'llashga harakat qiladilar. [2]

Bundan tashqari, Melvin va Stout talabalarda autentik materiallardan foydalangan holda madaniyatni o'rganish jarayonida umumiy o'rganish motivatsiyasining oshishi va fanga bo'lgan qiziqishning yangilanishini kuzatganlar. Ular dars davomida talabalarni tayyorlangan topshiriqlar orqali maqsadli madaniyatga mansub shaharga (masalan, Nyu-York shahrida dam olish kunlarini o'tkazish) "yuborib", autentik materiallardan foydalanganlar. Talabalar autentik materiallar bilan bevosita ishlashga ko'nikkan sari, tilni real hayotiy sharoitlarda qo'llashning amaliy foydasini yaxshiroq tushuna boshlaganliklarini bildirganlar. Ular darsdan tashqarida kerak bo'ladigan ko'nikmalarni mashq qilish va o'z madaniyatidan tashqaridagi madaniyatlar haqida bilish foydali ekanligini ta'kidlashgan.[3]

Shuningdek, ba'zi tadqiqotchilar sinfda ko'proq autentik materiallar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar, chunki ingliz tilini o'rgatish uchun maxsus ishlab chiqilgan materiallar va haqiqiy suhbatlar o'rtasida katta farq bor. Porter va Roberts autentik va noautentik materiallar o'rtasidagi farqlarni tahlil qilib, o'quv materiallari uchun yozilgan suhbatlar odatda sekin sur'atda bo'lishini, muayyan tuzilmalarning juda tez-tez takrorlanishini va nutqning ravon o'tishini ta'kidlaydilar. Shuningdek, ikkilanmalar ("uh" va "mm") ko'pincha yo'qolib ketadi va gaplar mukammal shakllantiriladi, deyarli xatolarsiz bo'ladi.[4] Boshqacha aytganda, talabalar auditoriyada eshitadigan til real dunyodagi tildan farq qiladi. Ko'pgina hollarda, auditoriyada eshitiladigan til sun'iyilashgan bo'lib, bu autentiklikni yo'qotadi, chunki ayrim o'qituvchilar muayyan til jihatlarini tushunarliroq shaklda o'rgatish zarur deb hisoblaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirishda autentik materiallar bilan ishlash muhokama qilindi. Ingliz tilidagi autentik materiallar tahlil qilindi va til sohiblariga xos tarzda muloqot jarayonini amalga oshirish ya'ni sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtiruvchi yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar o'rganildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Autentik til materialning guruhda ishlatilishining ahamiyati quyidagicha:

Til tabiiydir. Agar biz tilni o'rgatish maqsadida soddalashtirsak yoki o'zgartirsak (strukturani cheklash, lug'at tarkibini nazorat qilish va hokazo), vazifani yanada murakkablashtirishimiz mumkin. Aslida biz ma'no topishda yordam beradigan ishoralarni olib tashlashimiz mumkin.

Autentik til materiallari talabalar uchun kichik hajmdagi material bilan ishlash imkoniyatini yaratadi, lekin shu bilan birga u to'liq va mazmunli xabarlarini o'z ichiga oladi.

Autentik bosma materiallar talabalar uchun til bo'lmagan belgilarni (maket, rasmlar, ranglar, ramzlar, u joylashgan muhit) ishlatish imkoniyatini yaratadi, bu esa ularga ma'noni osonroq tushunishda yordam beradi.

Talabalar o'rganayotgan narsalarining tashqi dunyoda kerak bo'lishini darhol tushunishlari kerak. Real hayotiy materiallarning realistik tarzda ishlatilishi bu bog'liqlikni yaqqol ko'rsatib beradi.

Nunan (1999:27) ta'kidlaganidek, talabalar iloji boricha turli xil autentik materiallarni tinglashi va o'qishi muhimligini aytadi. Bu esa talabalarning motivatsiyasini oshirib, o'quv jarayoniga jon baxsh etadi va ular uchun auditoriyadagi bilimlar bilan real hayotdagi bilimlar o'rtasida muhim bog'liqlikni shakllantirishga yordam beradi.[1]

Bugungi kunda ko'plab yetakchi til tadqiqotchilari muhim deb hisoblaydigan yana bir jihat – o'quv materiallari Task-Based Language Teachingni qo'llash muhimdir.

Task-Based Language Teaching – til o'rganishning umumiy yondashuvi bo'lib, o'quvchilarning bajaradigan "vazifalari"ni ta'lim jarayonining markaziy qismi sifatida ko'radi. Bu yondashuvda ta'lim jarayoni o'quv dasturi maqsadlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ vazifalar to'plami sifatida tasvirlanadi.

Nunan (1991:279) vazifaga asoslangan yondashuvning besh asosiy xususiyatini keltirib o'tadi:

Chet tilida muloqot qilishni o'rganishga urg'u berish, o'quv jarayoniga autentik matnlarni (o'quv materiallarini) kiritish, talabalarga faqat tilga emas, balki o'rganish jarayoniga ham e'tibor qaratish imkoniyatini yaratish, talabalarning shaxsiy tajribalarini sinfxonadagi ta'lim jarayonining muhim qismi sifatida ko'rib chiqish, sinfxonada o'rganilgan tilni sinfdan tashqarida qo'llash imkoniyatini yaratishga harakat qilish.

Uning fikricha, vazifa – mazmunni tushunish, til birliklarini o'zlashtirish, tilni ishlab chiqarish va o'rganilayotgan tilda muloqot qilishga yo'naltirilgan topshiriqdir.

Talabalarga autentik materiallardan foydalanib, aniq vazifalarni bajarayotgan va real dunyo til maqsadlariga erishayotgan auditoriya mashg'ulotlarining ba'zi misollari keltirilgan:

Madaniy obyektlardan foydalanish orqali mashg'ulotlar

Madaniyat sohasiga doir materiallardan (masalan, fotosuratlar, ramzlar va qo'shiqlardagi tasvirlar) to'g'ridan-to'g'ri foydalanish va ularni qo'llash sinfdan juda samarali bo'lishi mumkin. Tomalin va Stempleski (1998) tomonidan ishlab chiqilgan "Madaniy kompozitsiya" deb nomlangan mashg'ulot ingliz tilida yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

O'qituvchi ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarga qilgan sayohatlaridan yig'ilgan turli realiya (masalan, avtobus yoki samolyot chiptalari, kvitansiyalar, kuponlar, pullar va fotosuratlar)ni tarqatadi. Ushbu narsalar aralashtiriladi va tartibsiz holda beriladi. O'quvchilar ikki yoki uch kishilik guruhlariga bo'linadi. Ular har bir narsani aniqlaydilar va o'z to'plamiga asoslangan hikoya yaratadilar.

Keyin guruhlar o'z hikoyalarini guruh oldida taqdim etadilar, har bir ishtirokchi hikoyaning bir qismini gapirib beradi. Hikoyada eslatib o'tilgan har bir element guruhga ko'rsatiladi va stol ustiga qo'yiladi. Barcha guruhlar tugatgandan so'ng, har bir o'quvchi o'z hikoyasining individual variantini yozadi.

Bunday madaniyat o'rgatuvchi faoliyatlar uchun vazifa yo'nalishli yondashuv tavsiya etiladi. O'quvchilar kichik guruhlarda yoki juftliklarda ishlab, aniq ma'lumotlarni ishlab chiqadilar, o'z kashfiyotlarini baham ko'rib, ularni maqsadli madaniyat kontekstida hamda o'z madaniyatlari bilan solishtirib talqin qiladilar.

Eshitish mashg'ulotlari

O'quvchilarning real dunyoda eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishning bir usuli eshitish mashg'ulotlaridan foydalanishdir. "Tinglab tushunish" nomli mashg'ulot tinglash strategiyalarini o'rgatish uchun ishlab chiqilgan.

O'quvchilarga ular mehmon sifatida kechaga borganliklari va suhbatlarni pinhona eshitish (eavesdropping) mumkinligi aytiladi. Ular real hayotdagi kecha suhbatlarining qisqa bo'laklarini tinglaydilar va maxsus topshiriq varag'iga odamlar qanday mavzuda gaplashayotganini yozib qo'yadilar. Shuningdek, ushbu mavzu ularga qiziqmi yoki yo'qligini ham belgilaydilar.

Keyingi bosqich sifatida o'quvchilar ingliz tilida suhbatlar olib boriladigan haqiqiy muhitlarda (yoki televizordagi inglizcha suhbatlarni kuzatib) yana shunday kuzatuvlar qilishlari, eshitganlari bo'yicha qaydlar olib, sinfga hisobot berishlari mumkin.

Eshitish/tomosha qilish mashg'ulotlari. Jim tomosha qilish: o'quvchilar video lavhani ovozsiz tomosha qilib, unda nima sodir bo'layotganini taxmin qilishlari va gapirayotgan odamlar nima deyayotganini oldindan tasavvur qilishlari kerak. Oldindan taxmin qilish: o'quvchilar videoning faqat boshini tomosha qiladilar, so'ngra voqealar qanday davom etishini taxmin qiladilar. Bo'lingan tomosha qilish (Split Viewing): guruh ikki kichik guruhga bo'linadi: yarim guruh ekranga qarab o'tiradi, qolganlari esa ekranga qaray olmaydi va faqat ovozni eshitadi. Keyin juftliklar bo'lib ishlashadi va videoda nima bo'lgani haqida hikoya tuzadilar.

Bunday mashg'ulotlar uchun mashqqa asoslangan yondashuv tavsiya etiladi. O'qituvchi: qaysi til birliklari avvaldan o'rgatilishi kerakligini aniqlab olishi; o'quvchilarning diqqatini aniq tomosha qilish vazifalariga qaratishi; ushbu jarayonda qaysi til jihatlari o'rgatilishini belgilab olishi; mashg'ulot uchun maxsus topshiriq varaqalari tayyorlashi kerak. Agar imkon bo'lsa, videodagi suhbat matni yozib olinib, keyinchalik o'quvchilar bilan tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Autentik materiallar talabalarga real kommunikativ tajriba taqdim etadi. Masalan, filmlar, intervyular, gazeta maqolalari, podkastlar va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotlar sotsiolingvistik tafovutlarni o'rganishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, autentik materiallar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida talabalar tilning nafaqat grammatik tomonini, balki uning turli madaniy va kommunikativ jihatlarini ham chuqur anglash imkoniga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nunan, D. Second Language Teaching and Learning. Boston: Heinle and Heinle Publishers. – 1999.
2. Gebhard J. Teaching English as a Foreign Language: A Teacher Self-Development and Methodology Guide. Ann Arbor: The University of Michigan Press. –1996.
3. Melvin B.S. and Stout D.S. Motivating language learners through authentic materials. In W. Rivers (ed.) Interactive Language Teaching. New York: Cambridge University Press, 44-56. – 2007.
4. Porter D. and Roberts J. Authentic listening activities. In M. L. Long (ed.) Methodology in TESOL. Rowley, Mass.: Newbury House. – 2001.